TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 7 - noyabr 539-10-138-Q/22 Zangiota tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 10 oktyabrdagi “2023-yilda harbiy xizmatga majburlarning harbiy hisobini yuritish va ularni iqtisodiyot tarmoqlari uchun band (bron) qilish ishlarini ta’minlash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 541-10-0-Q/22-sonli qarori ijrosi to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi 436-P sonli “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi 19-sonli qarorining ko‘rsatmalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yilning 30-iyun kuni 3272-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan Mudofaa Vazirining 2020-yil 6-iyundagi 390-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olishni tashkil etish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi asosida 2023-yil davomida Zangiota tuman mudofaa bo‘limi tomonidan Zangiota tumaniga tegishli korxona, tashkilot va muassasalar bilan hamkorlikda harbiy xizmatga majbur fuqarolarni bron qilish va ularni harbiy ro‘yxatga olish ishlarining sifatini yaxshilash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 10 oktyabrdagi 541-10-0-Q/22-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagi qaror bilan quyidagilar inobatga olinsin;

2.1 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi 119-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 15-bandida ko‘rsatilganidek, hokimliklar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar, shu jumladan ta’lim muassasalaridagi harbiy ro‘yxatga olish xodimlari soni bir xodim hisobiga yuklama normasidan kelib chiqqan holda:

2.2 Hokimliklarda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida hisobda 500 dan 1000 nafargacha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar bo‘lganda – harbiy ro‘yxatga olish uchun bir nafar shtatli xodim, hisobda 1000 dan 2000 nafargacha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar bo‘lganda - ikki nafar ana shunday xodim hamda shundan keyingi har 1000 nafar harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar hisobiga bir nafardan xodim:

2.3 Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ta’lim muassasalarida: hisobda 500 dan 2000 nafargacha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar bo‘lganda - asosiy ishidan ozod qilingan bir nafar xodim, hisobda 2000 dan 4000 nafargacha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar bo’lganda - ikki nafar

xodim, hisobda 4000 dan 7000 nafargacha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar bo‘lganda - uch nafar xodim va shundan keyingi har 3000 nafar harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar hisobiga - bir nafardan xodim belgilansin.

2.4 Hokimliklar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining harbiy ro‘yxatga olish xodimlari mahalliy budjet mablag‘lari hisobiga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ta’lim muassasalarida esa – o‘z mablag‘lari hisobiga ta’minlansinlar.

2.5 Hokimliklar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, idoraviy mansubliligi va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda, shu jumladan ta’lim muassasalarida hisobda 500 nafardan kam harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilar bo‘lganda harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarni harbiy ro‘yxatga olish va bron qilish ishlari belgilangan tartibda hokimlik, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, korxona, tashkilot va muassasaning, shu jumladan ta’lim muassasasining xodimlaridan biriga o‘rindoshlik bo‘yicha yuklansin va unga qo‘shimcha xaq to‘lash masalasi ko‘rilsin.

2.6 Joylardagi boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, zimmasiga harbiy hisobni yuritish yuklangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va ta’lim muassasalari rahbarlari, ichki ishlar, fuqarolik holatlarini qayd etish tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari, uy-joylardan foydalanish organlari va uy egalari “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 45-moddasiga muvofiq harbiy boshqaruv mahalliy organlariga ularning ishida ko‘maklashishi va O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy harbiy majburiyatning bajarilishini va harbiy ro‘yxatga olish qoidalariga rioya etilishini ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rishi shart.

3. Zangiota tumani hududida joylashgan tuman tashkilotlari, muassasa va korxonalar rahbarlari, tuman hokimi o‘rinbosari – S.Nasirov hamda mudofaa ishlari bo‘limiga; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi 119-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Nizomi talablarini amalda bajarish maqsadida Zangiota tuman hududida joylashgan, idoraviy mansubligi va mulkchiligidan qat’iy nazar tuman tashkilotlari, muassasa va idoralarda mavjud barcha harbiy xizmatga majburlar va chaqiriluvchilarning O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tomonidan belgilangan yo‘riqnoma talablari va unga ilova qilingan shakllar bo‘yicha to‘liq va sifatli hisobini yuritilishini ta’minlash; zaxiradagi ofitserlar guvohnomalari, shuningdek, safarbarlik chaqiruv rezervi va muddatli harbiy xizmatni o‘tagan xizmatchilarning guvohnomalaridagi yozuvlar ularning shaxsiy kartochkalaridagi (T-2 shakl) yozuvlar bilan doimiy ravishda aniqlashtirib borish, hamda ushbu kartochkalarni solishtirish uchun har yili kamida bir marta mudofaa ishlari bo‘limlariga taqdim etish; rahbarlar, muhandis-texnik xodimlar va malakali ishchilar tarkibidan bo‘lgan harbiy xizmatga majburlarni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlarga muvofiq safarbarlik va urush davri uchun O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlariga bronlashtirib qo‘yilishini o‘z vaqtida rasmiylashtirish; safarbarlik bo‘yicha chaqiriladigan mutaxassislarni o‘rnini to‘ldirish uchun oldindan rezerv kadrlar tayyorlash; mahalliy harbiy boshqaruv organlariga safarbarlik tadbirlarini o‘tkazishda yordam berish; fuqarolarni ishga qabul qilishda ularning harbiy hisob hujjatlari (harbiy xizmatga majbur bo‘lgan fuqarolar-zahiradagi ofitserlar guvohnomasi, chaqiriluvchilardan esa qayd etish guvohnomasi) mavjudligini tekshirish, hamda ularning harbiy hisobda turishini aniqlash; ishga yangi qabul qilingan yoki ishdan bo‘shatilgan harbiy xizmatga majbur bo‘lganlar va chaqiriluvchilar to‘g‘risida yetti kun muddatda mudofaa ishlari bo‘limiga xabar qilish vazifalari yuklansin.

4. Tuman statistika bo’limi;

Tuman mudofaa ishlari bo’limining so‘rovnomasiga asosan tumanga tegishli idoraviy mansubligi va

mulkchiligidan qat’iy nazar bo’lim tomonidan ro‘yxatga olingan tashkilotlar, muassasa, idoralar va ta’lim muassasalarining ro‘yxatlari belgilangan tartibda berib borilishi ta’minlansin; turli sabablarga ko‘ra o‘z ish faoliyatini to‘xtatgan yoki yangi ochilgan mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tashkilotlar, muassasa va idoralar to‘g‘risida o‘z vaqtida joylardagi harbiy boshqaruv organlarini xabardor qilish yo‘lga qo‘yilsin.

5. Tuman mudofaa ishlari bo’limi; Ushbu qarorga muvofiq har yilning 1-may sanasiga qadar yangi o‘quv yili uchun tekshiruv rejasi ishlab chiqilsin va kelishilgan rejaga asosan tuman tashkilotlari, muassasa va korxonalarida tekshiruv o‘tkazish yo‘lga qo‘yilsin; Tuman tashkilotlari, muassasa va korxonalarida harbiy hisobni yuritish uchun biriktirilgan xodimlar bilan tuman mudofaa ishlari bo‘limi binosida O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi” Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini harbiy ro‘yxatga olish Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 119-sonli qarori talablarini yetkazish maqsadida o‘quv mashg‘ulotlari tashkil qilinsin va tuman mudofaa ishlar bo‘limida mashg‘ulotlar doimiy ravishda o‘tkazib borilishi nazoratga olinsin.

6. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Safaraliyev, tuman hokimining o‘rinbosari S.Nasirov hamda tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig’i zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Tamikayev A. U.**